# YASHIL IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIY NATIJALARI ........ 12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI ........ 16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH ........ 20
Abbos Saydullaev
Iqboloy Choriyorova
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI ........ 31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ЗAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 36
Elnoraxon Muminova Abdukarimovna
Sarvinoz Mamatojiyeva Dilshodjon qizi
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ........ 42
Umarova Dilfuza Raxmatulla qizi
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ MICE-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 47
Нарзуллаева Фариза Акмалевна
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION ........ 53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI ........ 59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI ........ 64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 72
Olimova Shahlo Bahodir qizi
Inomova Mahliyo Yusuf qizi
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI ........ 76
Toshimov Azizbek Hakimovich
Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI ........ 81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI ........ 86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI ........ 92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN ........ 97
Sardor Kuvandikov
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ........ 106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI ........ 113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI ........ 117
G'afforov Kamronbek
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI ........ 123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIY KOMPONENTLARI ........ 132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI ........ 137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi
FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH ........ 141
Maxmudov Omon To'xtayevich
RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI ........ 147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ........ 152
Omonova Zarina Xudoymurodovna
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli "suv ta'minot servis" AJ misolida) ........ 160
Doniyorova M.
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ........ 164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODELI (EVCI) ........ 169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ ........ 174
Нодира Илхамовна Саидахмедова
Жамолиддин Ярашевич Нуриллаев
THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES ........ 181
Allaberganov Zakir Gaibovich
Alimova Guzal Abdukhakimovna
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELI ........ 188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 196
**Xamroyev Anvar Ashurovich**
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH ........ 202
**Ismaylov Kuatbay Sarsenbayevich**
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI ........ 206
**Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich**
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH ........ 212
**Hamroyeva Feruza Azizjon qizi**
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 217
**Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich**
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI ........ 226
**Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li**
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI ........ 231
**Nurmatov Samandar G'ayratovich**
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI ........ 238
**Bau Long**
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ........ 244
**Ахрарова Шодияхон Жаъфархон кизи**
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI ........ 247
**Djurayev Davlat Djonibekovich**
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI ........ 250
**Raxmanova Laylo Baxodirovna**
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ........ 256
**Payziyev Hamid Orziqulovich**
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 260
**A.A. Ismailov**
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI ........ 266
**Elmurodov Shohzod Shavkatovich**
DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA ........ 272
**A.A. Ismailov**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA

**A.A. Ismailov**
**i.f.d., dotsent**

**Annotatsiya.** Har qanday davlat moliya siyosatining asosini davlat budjeti tashkil etadi. Shu sababli, davlat moliya siyosatining samaradorligi bevosita budjet siyosatining takomillashganlik darajasiga bog‘liq. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda davlat budjeti siyosatini takomillashtirish bilan bog‘liq dolzarb muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
**Kalit so‘zlar:** davlat, davlat budjeti, budjet siyosati, daromad, xarajat, budjet taqchilligi, soliqlar, qimmatli qog‘ozlar, davlat qarzi.
**Аннотация.** Основу финансовой политики любого государства составляет государственный бюджет. В связи с этим эффективность финансовой политики государства непосредственно зависит от уровня совершенства бюджетной политики. В ходе исследования выявлены актуальные проблемы совершенствования бюджетной политики в Узбекистане и разработаны научные предложения и рекомендации, направленные на их решение.
**Ключевые слова:** государство, государственный бюджет, бюджетная политика, доходы, расходы, дефицит бюджета, налоги, ценные бумаги, государственный долг.
**Abstract.** The state budget constitutes the foundation of the financial policy of any country. Therefore, the effectiveness of a state’s financial policy largely depends on the level of development and improvement of its budget policy. The study identifies current challenges associated with improving budget policy in Uzbekistan and develops scientific proposals and recommendations aimed at addressing these issues.
**Keywords:** state, state budget, budget policy, revenue, expenditure, budget deficit, taxes, securities, public debt.

## KIRISH

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida davlat budjeti defitsitining nominal yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshmaydigan darajasini ta’minlash, muvozanatlashgan budjet siyosatini yuritish makroiqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqarorligini ta’minlashning zaruriy shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan [1]. Bu esa, o‘z navbatida, davlatning budjet siyosatini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarni aniqlash va ularni hal qilishning ilmiy jihatdan asoslangan yo‘llarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ayni vaqtda, respublikamizda muvozanatlashgan budjet siyosatini yuritish masalasi o‘zining yechimini topgan emas.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M. Sajinaning fikriga ko‘ra, davlatning budjet siyosatiga iqtisodiy yondashuvning mohiyati shundaki, davlat budjeti defitsiti muammosini uzoq muddatli davriy oraliqda hal qilish uchun iqtisodiy barqarorlik masalasini tubdan hal qilish lozim [2].

E. Nikonovaning xulosasiga ko‘ra, davlatning zamonaviy budjet siyosati, shu jumladan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishning ajralmas qismi, shubhasiz, ichki iqtisodiyotga investitsiyalarni ko‘paytirish, uning barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun bir qator shart-sharoitlarni yaratadi. Bunday siyosatning muhim o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, uni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan moslashuvchan hamda universal bo‘lgan instrumentlar orqali amalga oshirilishi hisoblanadi [3].

T. Vershiloning xulosasiga ko'ra, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligiga eng kam miqdordagi mablag'lardan foydalanish yoki budjetdan ma'lum miqdorda foydalanish orqali erishiladi va bunda davlat budjeti defitsiti hamda kassaviy uzilishlar miqdori muhim o'rin tutadi [4].

Davlat budjeti defitsiti bilan kassaviy uzilishni farqlash lozim. Davlat budjeti defitsiti deganda davlat budjeti jami daromadlarining jami xarajatlarini qoplashga yetmay qolgan qismi tushuniladi.

Davlat budjetidagi kassaviy uzilish esa, soliqlarning kelib tushish vaqti bilan xarajatlarni moliyalashtirish vaqtining bir-biriga mos kelmasligidir.

S.I. Chepurovning fikriga ko'ra, davlat xaridlari sohasida budjet mablag'laridan samarali foydalanish tamoyilini faqat xaridlarni me'yorlash va asoslash kombinatsiyasi orqali amalga oshirish mumkin [5].

J.M. Korres va A. Kokkinouning fikricha, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi kuzatilgan va kutilgan ko'rsatkichlar indeksi bilan o'lchanadi hamda haqiqiy ko'rsatkichni tegishli chegarada joylashgan optimal ko'rsatkich bilan taqqoslashni o'z ichiga oladi [6].

Yu.A. Kroxinaning xulosasiga ko'ra, qonun chiqaruvchi budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi konsepsiyasini aniqlashtirishga harakat qiladi, ammo budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash muammosi bilan bog'liq ko'plab savollar mavjud, chunki bu tamoyil budjet bosqichida juda muhimdir [7].

H. Hakimovning xulosasiga ko'ra, budjet qoidalari mavjud moliyaviy ko'rsatkichlarga qonuniy tartibdagi cheklovlarning o'rnatilishidir. Shuningdek, budjet qoidalari bir qator xususiyatlarga ham ega bo'lib, xomashyoni import va eksport qiladigan mamlakatlarda sanoat tizimini nazorat qiladi. Bundan tashqari, budjet qoidalarini o'rnatishda odatda mamlakatlar asosan ikki maqsadga erishishni o'z oldilariga belgilab olishadi, masalan, resurslarni tejash va ularning sarflanish miqdorini rejadagi miqdorga tenglashtirish. Shuningdek, olimning fikriga ko'ra, eng avvalo, budjet qoidalarini joriy etish choralarini davlat budjeti surunkali ravishda defitsit bilan chiqaversa hamda ko'rsatkich yuqorilab boraversa, har qanday mamlakat o'z budjeti muvozanatini ta'minlashi uchun qo'llashi kerak bo'ladi [8].

M. Xaydarov xarajat vakolatlari va majburiyatlarini hamda ularni bajarilishiga ajratilgan daromadlar manbalarini muvofiqlashtirish masalasida mavjud bo'lgan quyidagi muammolarni ajratib ko'rsatadi:

1. Vakolatlarni chegaralash shuni ko'zda tutadiki, alohida davlat vazifalarining me'yoriy-huquqiy tartibga solinishi markaziy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi, ularning bajarilishi esa mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan, ya'ni qonun ijodkorligi faoliyati ijrochilik faoliyatidan alohidalashtirilgan. Bunda vazifalarning ijrosi yuzasidan vakolatlarning mahalliy darajaga o'tkazilishi:

a) tegishli moliyaviy mablag'larning o'tkazilishi, ya'ni ularni moliyalashtirish bilan birga moslashtirilib borilishi mumkin. Bunday o'tkazish mablag'larni yuqori budjetdan quyi budjetga maqsadli ajratmalar ko'rinishida (subvensiyalar shaklida) amalga oshiriladi;

b) yuqori budjetdan moliyalashtirish bilan vakolatlar mustahkamlab qo'yilmasligi mumkin.

2. Markazlashgan va mahalliy darajalar o'rtasida xarajat majburiyatlarini aniq chegaralash keyingi muammo hisoblanadi. Masalan, ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy sohaga xarajat majburiyatlari (fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot), maqsadli dasturlar va ularda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ham markazlashgan, ham mahalliy budjetlarga biriktirilgan. Bunda vakolatlar mavjud holda, har bir darajadagi budjet uchun xarajatlarning umumiy yo'nalishi detallashtirilmagan holda taqsimlanadi. Amaliyotda bunday tartibda mablag'larning samarali ishlatilishini boshqarish juda murakkab, chunki ko'plab xarajat majburiyatlari barcha darajadagi budjetlar uchun xos. Natijada xarajat majburiyatlarining, jumladan, yangitdan kiritilganlarining ham muayyan darajaga biriktirib qo'yilishi qonunchilik doirasida qolmoqda, bu esa umum o'rnatilgan amaliyotdan chekinish, takrorlashlarni istisno etmaydi, ularning bajarilishi ustidan javobgarlikni yo'qqa chiqaradi va xarajatlardan samarasiz foydalanilishiga olib keladi [9].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda davlatning budjet siyosatini milliy iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatidagi rolini baholash maqsadida ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat statistika agentligi, Markaziy bank, shuningdek, xalqaro moliya institutlari hisobotlari va ilmiy adabiyotlardan olindi. Tadqiqot jarayonida davlat budjeti daromadlari va xarajatlari, budjet defitsiti, davlat qarzi hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga oid statistik ma'lumotlar yig'ildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, statistik guruhlash va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, budjet ko'rsatkichlarining yillar kesimidagi o'zgarish tendensiyalari aniqlanib, ularning iqtisodiy o'sish, inflyatsiya va fiskal barqarorlikka ta'siri baholandi. Tahlil natijalari asosida davlat budjet siyosatini takomillashtirishga oid ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli[1] Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromadlari prognozi bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda:

respublika budjeti umumiy xarajatlarining 3 foizidan ortiq miqdordagi xarajatlarni qisqartirish Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan;

respublika budjeti umumiy xarajatlarining 3 va undan kam foizi miqdoridagi xarajatlarni qisqartirish O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining taklifiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan qabul qilinadi [10] (1-jadval).

1-jadval
O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari, mlrd so‘m[2]

| Ko‘rsatkichlar | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2024-y. |
|---|---|---|---|---|---|
| Daromadlar | 132938 | 164799 | 201863 | 231721 | 274423 |
| Xarajatlar | 144121 | 188257 | 236692 | 281097 | 310926 |

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromadlari va xarajatlarining miqdori 2020–2024-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Biroq, mazkur davrda Davlat budjeti defitsit bilan bajarilgan, ya’ni xarajatlarning miqdori daromadlarning miqdoridan katta bo‘lgan.

Ta’kidlash joizki, mamlakat Davlat budjeti xarajatlarining umumiy hajmida ijtimoiy xarajatlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi (1-rasm).




**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining umumiy hajmida ijtimoiy xarajatlarning ulushi, foizda[3]**

1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining umumiy hajmida ijtimoiy xarajatlarning ulushi, foizda.

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2020–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining umumiy hajmida ijtimoiy xarajatlarning ulushi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan.

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida soliqlar juda yuqori salmoqni egallaydi (2-rasm).

1 O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni: https://lex.uz/ru/docs/-7277618
2 Жадвал муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг статистик маълумотлари асосида тузилган.
3 Расм муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг статистик маълумотлари асосида тузилган.




**2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida soliqlarning ulushi, foizda.[4]**

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida soliqlar 2020–2024-yillarda nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Masalan, 2024-yilda soliqlarning Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i 64,9 foizni tashkil etdi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2021–2023-yillarda bilvosita soliqlarning Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq 2024-yilda 2023-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

E'tirof etish joizki, respublikamizda davlatning budjet siyosatini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolardan biri — bu davlat budjetining yirik miqdordagi defitsitga ega ekanligidir.

Bu boradagi ikkinchi muammo bo'lib, davlat tashqi qarzining asosiy qismini davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilayotganligidir (3-rasm).

Davlat budjeti xarajatlarining davlatning tashqi qarzi hisobidan moliyalashtirilishi milliy valyutadagi pul massasining ko'payishiga olib keladi va buning natijasida inflyatsiya darajasi oshadi(3-rasm).




**3-rasm. O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzining Davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan qismi ulushi, foizda[5]**

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzining Davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan qismi 2020–2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2024-yil yakunida 47 foizga yetgan.

4 Расм муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг статистик маълумотлари асосида тузилган.
5 Расм муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг статистик маълумотлари асосида тузилган.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida davlatning budjet siyosatini takomillashtirish boʻyicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- davlatning budjet siyosatiga iqtisodiy yondashuvning mohiyati shundaki, davlat budjeti defitsiti muammosini uzoq muddatli davriy oraliqda hal qilish uchun iqtisodiy barqarorlik masalasini tubdan hal qilish lozim;
- budjet mablagʻlaridan foydalanish samaradorligi kuzatilgan va kutilgan koʻrsatkichlar indeksi bilan oʻlchanadi hamda haqiqiy koʻrsatkichni tegishli chegarada joylashgan optimal koʻrsatkich bilan taqqoslashni oʻz ichiga oladi;
- Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromadlari va xarajatlarining miqdori 2020–2024-yillarda oʻsish tendensiyasiga ega boʻlgan. Biroq, mazkur davrda Davlat budjeti defitsit bilan bajarilgan, yaʼni xarajatlarning miqdori daromadlarning miqdoridan katta boʻlgan;
- 2020–2024-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining umumiy hajmida ijtimoiy xarajatlarning ulushi sezilarli darajada yuqori boʻlgan;
- Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni 2020–2024-yillarda soliqlar egallagan;
- davlat budjetining yirik miqdordagi defitsitga ega ekanligi, davlat tashqi qarzining asosiy qismini davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishga yoʻnaltirilayotganligi va davlat budjetining ijtimoiy xarajatlari ijtimoiy meʼyorlar asosida rejalashtirilmayotganligi davlatning budjet siyosatini takomillashtirish bilan bogʻliq boʻlgan dolzarb muammolardir.

Fikrimizcha, davlatning budjet siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Pul-kredit siyosati va davlatning budjet siyosati oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlash yoʻli bilan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarining past va barqaror darajasini taʼminlash orqali davlat budjeti xarajatlarining maʼlum qismini xususiy sektorning pul mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilishiga erishish kerak.

Kreditlarning bahosi arzonlashishi kredit oluvchilar sonining oshishiga va kreditlar summasining koʻpayishiga olib keladi. Bu esa, xususiy sektorning davlat sektoridagi moliyalashtirish jarayonlaridagi faolligining oshishiga olib keladi.

2. Hukumatning qimmatli qogʻozlarining investitsion jozibadorligini taʼminlash yoʻli bilan ushbu qimmatli qogʻozlarning emissiya hajmini oshirishga erishish orqali davlat tashqi qarzining budjet xarajatlarini moliyalashtirishga yoʻnaltirilayotgan qismini kamaytirish lozim.

3. Natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirishni takomillashtirish uchun, birinchidan, mamlakatni rivojlantirish strategik maqsadlari uzoq muddatli xususiyatga ega boʻlganligi sababli davlat budjetining xarajatlarini rejalashtirishda uzoq muddatlilik prinsipiga alohida eʼtibor qaratish kerak; ikkinchidan, natijaviy budjetlashtirishning samaradorligini tavsiflovchi koʻrsatkichlar guruhini shakllantirish zarur.

Natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirishda muddatlilik asosiy mezon hisoblanadi. Buning sababi shundaki, har qanday mamlakatni rivojlantirishning strategik maqsadlari uzoq muddatli xususiyatga ega boʻlib, oʻrta va uzoq muddatli budjetlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ilgʻor xorij tajribasida keng qoʻllanilayotgan “Natijaviylikka yoʻnaltirilgan budjetlashtirish” texnologiyasi quyidagilarni koʻrsatadi:

a) hisobot davri yakunida budjet tashkiloti faoliyati natijalarining natural koʻrsatkichlari (masalan, davolangan bemorlar soni, oliy oʻquv yurtlariga kirgan maktab oʻquvchilari soni);

b) budjet tashkiloti faoliyatining natijalari birligiga mos ravishda moliyaviy sarflar hajmi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni. 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.
2. Sajina M.A. Byudjetnaya politika gosudarstva // Finansy i kredit, 2005. – № 27. – S. 2–12.
3. Nikonova E.Yu. Byudjetnaya politika gosudarstva – osnova reorganizatsii mejbyudjetnyx otnosheniy // Vestnik Chuvashskogo universiteta, 2008. – № 4. – S. 23–29.
4. Vershilo T.V. Printsip rezultativnosti i effektivnosti ispolzovaniya byudjetnyx sredstv: pravovye problemy realizatsii // Finansovoe pravo. – Moskva, 2012. – № 12. – S. 21–24.
5. Chepurov S.I. Razvitie printsipa effektivnosti ispolzovaniya byudjetnyx sredstv // Molodoy uchenyy. – Moskva, 2020. – № 32. – S. 88–89. URL: https://moluch.ru/archive/322/73052/ (murojaat qilingan sana: 01.06.2023).
6. Korres G.M., Kokkinou A. Public Spending Efficiency: A Stochastic Frontier Approach on Technical Efficiency and Regional Growth. 2014. DOI: https://doi.org/10.4018/IJSESD.2014100101.

7. Kroxina Yu.A. Effektivnoe rasxodovanie byudjetnyx sredstv: sostoyanie i perspektivy sovershenstvovaniya pravovogo regulirovaniya // Ekonomika. Pravo. Obshchestvo. – 2018. – № 1(13). – S. 34–39.
8. Hakimov H.A. Byudjet qoidalari va ularning iqtisodiy samaradorligi // "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro standartlarni joriy etish: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalari va ma'ruza tezislari to'plami. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 510 b.
9. Xaydarov M. Byudjet kodeksini joriy etish sharoitida xarajatlar majburiyatlari reyestrini tuzish // Iqtisod va moliya, 2014. – № 6. – B. 2–9.
10. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1011-sonli Qonuni. 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2024-y., 03/24/1011/1062-son.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/2**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz